



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI
DIREKTORINING BUYRUG'I

SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrdagi navbatdan tashqari 4-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrdagi navbatdan tashqari 4-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman**:

1. SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrdagi navbatdan tashqari 4-sonli yig'ilish qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM Kengashi qarorlarida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A.Sobirov

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

*2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri*

4/1-son

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilish muhokamasi.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori A.Sobirovning "Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilish muhokamasi"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: – Sizlarga ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-sentabr kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu videoselektorda quyidagilar muhokama qilindi:

"Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta'lim va muallimga bog'liq. Sizlar bilan ish boshlagan birinchi kundan aytaman: ta'lim, ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, muallim", – dedi davlatimiz rahbari.

O'qituvchiga munosib sharoit yaratish, bog'cha, maktab qurish, jihozlash, chetdan mutaxassis olib kelish, zamonaviy darslik va o'quv dasturlarini joriy qilish bo'yicha juda ko'p sharoitlar yaratilgani va bu yana davom ettirilishi ta'kidlandi.

"Lekin har bir tuman, viloyat hokimi, biz farzandlarimizni ishonib topshirgan bog'cha, maktab, texnikum, oliygoh rahbarlari bir haqiqatni aniq bilishi zarur.

Odamlarimiz yaxshi yashashi uchun iqtisodiyotimiz kuchli bo'lishi kerak! Buning uchun yangi tovar, yangi xizmat, yangi texnologiya kerak! Sifatli ta'lim tizimi orqaligina bularga erisha olamiz! Boshqa yo'limiz yo'q!

Shu haqiqatni anglab, har kuni o'zini qiynab ishlagan rahbarning tumanida, bog'chasi, maktabi, texnikumi, oliygohida, albatta, o'zgarish va natija bo'ladi!", – dedi Prezident.

Yig'ilishda jalb qilinayotgan investitsiyalarga, yangi ochilayotgan korxonalarga yarasha munosib kadr ham tayyorlanishi lozimligi qayd etildi.

O'tgan davrda o'qituvchilarning oyligiga qo'shimcha 10 dan ziyod ustamalar joriy qilindi.

"E'tibor bering, bugun o'z ustida ishlagan 60 mingdan ortiq o'qituvchi 10-12 million so'm maosh olyapti. Bu qachon bo'lgan?" – dedi Prezident.

Joriy oydan boshlab maktab direktorlari, bog'cha mudiralari va ularning o'rinbosarlari oyligi ham 10 million so'mdan oshdi. Yangi baholash tizimiga o'tgan 1,5 ming maktabning 300 tasi ijobiy natija ko'rsatgani uchun butun jamoasi 40 foizgacha ustama oladi.

"Men xalqimizga vaqti kelib o'qituvchilarning maoshini ming dollarga yetkazamiz degan gaplarim mana uch yil ichida haqiqatga aylandi", – dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yil boshidan xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilarimiz 195 ta medalni qo'lga kiritdi. Ularga oshirilgan stavkada jami 10 milliard so'm, murabbiy o'qituvchilariga esa 3,5 milliard so'm pul mukofoti beriladi.

Xorijiy til egalari jalb qilingan 1 mingdan ziyod maktabda til bo'yicha sertifikat olgan o'quvchilar soni bir yilda 2,5 barobar ko'paydi.

"To'g'ri, maktabgacha va maktab ta'limida o'zgarishlar bo'lyapti, dasturlar ishlayapti, natijalar bor. Lekin kasb-hunar va oliy ta'limga mas'ul mutasaddilar haligacha ta'limdagi islohotlar mazmunini to'liq tushunib yetgani yo'q", – dedi davlatimiz rahbari.

Endilikda maktabgacha va maktab ta'limi hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirlari, ularning o'rinbosarlari, hokimlar preventiv va proaktiv ishlashga o'tib, ta'limning barcha yo'nalishlarida katta o'zgarish qilishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Joriy yilda bog'cha o'rinlarini qo'shimcha 182 mingga ko'paytirish rejalashtirilgan. Ularning 82 mingga yangi bog'chalar hissasiga to'g'ri keladi.

Tumanlar hokimlari qolgan o'rinlar nima hisobidan yaratilishini o'ylamayotgani tanqid qilindi.

Misol uchun, 118 ta bog'chadagi 255 ta xona ta'mirga muhtoj bo'lgani uchun bo'sh turibdi. Yoki joylarda 8 ta bog'chani qurish va ta'mirlash 2-3 yildan beri cho'zilmoqda.

Viloyat va tumanlar hokimlariga 118 ta bog'chadagi xonalarni ta'mirlab jihozlashga, yana 8 ta bog'chani to'liq ishga tushirishga 1 noyabrgacha muhlat berildi, aks holda tegishli choralar ko'rilishi haqida ogohlantirildi.

"Qamrovni oshirish uchun barcha sharoit qilib beryapmiz, lekin bog'chalarga yangi nafas, yangi metodika kirib borishi, tarbiyachilarning salohiyati ham shunga yarasha bo'lishi kerak", – dedi Prezident.

Yoz mavsumida 118 ming tarbiyachining malakasi oshirildi, lekin bu yetarli emasligi qayd etildi.

Suu bois, yangi o'quv yilidan pedagogika oliygohlarida o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachilar uchun "1+5" (1 kun o'qish, 5 kun ish) bakalavr ta'lim shakli joriy qilinadi. Bu orqali bog'chalarga har yili qariyb 10 ming oliy ma'lumotli mutaxassis kirib keladi.

Xususiyy bog'cha bilan davlat bog'chasi uchun ta'lim-tarbiya sifati bo'yicha yagona yondashuv yo'qligi ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan kelgusi yilda har bir viloyatda bog'cha tarbiyachilari pedagogik mahoratini oshirishga metodik ko'maklashuvchi tayanch "Yangi avlod" bog'chalari barpo qilinadi.

Mutasaddilarga "Yangi avlod" bog'chasi loyihasini eski va bir xil yondashuvlardan chekinib, yangicha ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilish kun tartibidagi navbatdagi masala – maktab ta'limi.

Olis hududlardagi 74 ming o'quvchi hozirgacha 5-7 kilometr uzoqlikdan maktabga qatnayotgani qayd etildi.

Uch yil ichida iqtidorli o'quvchilar uchun 201 ta ixtisoslashgan maktab tashkil qilindi. Lekin 12 ta ixtisoslashgan maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari haligacha yakunlanmagani qayd etildi.

Tegishli viloyatlar hokimlariga ishlarni yil oxirigacha yakuniga yetkazish topshirig'i berildi.

Kecha Prezident yosh avlodni tarbiyalashning yagona konsepsiyasi bilan tanishdi.

Endilikda yosh toifalari bo'yicha milliy tarbiya modeli yaratiladi. Bu orqali bolalar zamonaviy kompetensiyaga ega mutaxassis bo'lish bilan birga milliy qadriyatlarga sodiq inson bo'lib tarbiyalanadi.

Buning ilk qadami sifatida yangi o'quv yilidan barcha bog'cha, maktab va oliygohlarda har dushanba "Kelajak soati" darslari o'tilmoqda.

Umuminsoniy, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g'oyasi, Yangi O'zbekistondagi islohotlarni o'zgarib borayotgan zamon sharoitida texnologiya asri bolalariga chuqurroq, zamonaviy usullarda yetkazish kerakligi aytiladi.

Shu bois, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti olimlari bilan birgalikda qiziqarli videoroliklar ishlab chiqadi.

Yaratilgan kontent "Milliy tarbiya" platformasiga doimiy ravishda joylashtiriladi, telekanallarda yoritib boriladi.

Kuni kecha Prezidentimiz maktabdan tashqari ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, o'quvchilarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha qarorni imzoladi.

Joylardagi 219 ta "Barkamol avlod" maktabi, "Yoshlik" sport jamiyati, O'quvchi yoshlar markazi va O'zbekiston bolalar tashkiloti negizida respublika, hudud va tumanlarda "Kelajak" markazlari tashkil etiladi.

"Kelajak" markazlari maktablar bilan uzviy va maqsadli tadbirlarni jonlantirib, muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarni to'garaklarga jalb qiladi.

Ushbu tizim bilan barcha maktablar qamrab olinishi ta'kidlandi. Har bir o'rta maktabda maslahatchi lavozimi joriy qilinadi. Maslahatchilar o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishiga qarab, til, kasb, muhandislik, ijod, san'at va sport to'garaklarini tashkil qiladi.

Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari sinf rahbari, maktab psixologi bilan xulq-atvorida salbiy o'zgarish bo'lgan o'quvchilarni ta'lim va oiladagi muammolarini o'rganib, ularni yengib o'tishga hamrohlik qiladi.

Mahalladagi yoshlar yetakchilari esa o'quvchilarni maktabdan tashqari vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun mas'ul bo'ladi.

Eng asosiysi, endi maktablarda o'quvchilarning to'garaklar, sport, volontyorlik va olimpiadalarda erishgan natijalari bo'yicha "raqamli portfolio"si shakllanib, elektron shahodatnomada ko'rsatiladi.

"Meni tashvishga solayotgan masala – yoshlarimizni kasb-hunarli qilib, doimiy daromad topishi uchun sharoit yaratish. Agar buni to'g'ri yo'lga qo'ysak, mahallada kambag'al va ishsiz qolmaydi", – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi davomida energetika, geologiya, kimyo, transport, qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi o'nlab yirik kompaniya rahbarlari bilan 35 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar paketi shakllantirildi.

Bunday loyihalar uchun texnologiyalar va xitoy tilini yaxshi biladigan minglab kadrlar kerakligi ta'kidlandi. Kasbga o'rgatishda Xitoy tajribasini joriy etish maqsadida har bir viloyatda 2 tadan "O'zbekiston – Xitoy ustaxonasi"ni tashkil qilish topshirildi.

Oliygo'h, texnikum va maktablarda xitoy tilini o'qitish maqsadida 100 dan ziyod til egalari va volontyorlar taklif qilinadi.

"Bizda 450 ming o'quvchini qabul qila oladigan 598 ta texnikum bor. Bu yoshlar uchun juda katta resurs, sharoit va imkoniyat.

Lekin bu yil 9-sinfni 608 ming o'quvchi bitirgan bo'lsa, ularni atigi 182 ming nafari texnikumlarga boryapti.

Bugundan boshlab bir yil yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish yili bo'ladi", – dedi Prezident.

Mutasaddilar zimmasiga viloyat va tuman hokimlari bilan birgalikda Prezident va ixtisoslashgan maktabda o'rttirilgan tajriba asosida joriy yilda 598 ta texnikumga xalqaro standart bo'yicha zamonaviy kasbga o'qitish muhitini olib kirish vazifasi qo'yildi.

Umuman, viloyat va tuman hokimlariga kelgusi o'quv yilida 9-sinf bitiruvchilarining kamida 50 foizini, hozirgiga qo'shimcha yana 200 ming o'quvchini texnikumga qamrab olish topshirildi.

Bu ishlarni yagona siyosat asosida olib borish uchun Kasbiy ta'lim agentligi tashkil qilinadi.

Joriy yildan boshlab oliygohlarda qabul kvotalarini investitsiya loyihalarida kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib shakllantirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Endilikda investor buyurtmasi bilan texnikumlarda ham kadrlar maqsadli tayyorlanadi. Investor so'roviga asosan texnikumdagi ta'lim dasturlarini 30 foizgacha o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Texnikum bilan dual ta'limni yo'lga qo'ygan korxonalarga imtiyozli kredit ajratiladi.

Shu bilan birga, tarmoq uyushmalari o'zlariga a'zo ish beruvchilarning malaka talablarini tayyorlab bera olmayotgani, oqibatda korxona ham zarar ko'rayotgani, texnikumlar ham nimani o'qitishni bilmayotgani bo'yicha e'tiroz bildirildi.

Mutasaddilarga yil yakunigacha yangi agentlik bilan birgalikda tarmoqlardagi korxonalar uchun kerakli kasblar kesimida standart va talablarni ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilish davomida soha va hududlar mas'ullarining hisobotlari tinglandi, ta'lim tashkilotlari rahbarlari bilan muloqot qilindi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori A.Sobirovning "Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilish muhokamasi" ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand viloyati pedagogik mahorat markaz kafedra va bo'limlarida Prezident tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi tahlil qilinsin.

3. SamVPMMda ta'lim sohasidagi islohotlarga jiddiy e'tibor qaratilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kofibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

*2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri*

4/2-son

SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.

SamVPMM Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova so'zga chiqdi: – SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida faoliyatining umumiy monitoring quyidagicha:

kafedrada 2025-o'quv yilida 4 ta respublika, 3 ta viloyat va 5 ta tuman seminari o'tkazilgan;

kafedra faoliyatining markaz rasmiy veb-saytida 34 marta, OAV da 8 marta yoritib borilgan;

nashr ishlari jami 52 ta bo'lib, shundan 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 7 ta uslubiy qo'llanma, 10 ta OAKka maqola, 32 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar chop etilgan;

xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. PIRLS, TIMSS, PISA tadqiqotlaridan dars davomida foydalanib kelinmoqda.

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida faoliyatining umumiy monitoring quyidagicha:

kafedrada 2025-o'quv yilida 2 ta respublika, 1 ta viloyat va 2 ta tuman seminari o'tkazilgan.

kafedra faoliyatining markaz rasmiy veb-saytida 31 marta, OAV da 6 marta yoritib borilgan;

nashr ishlari jami 49 ta bo'lib, shundan 3 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, 11 ta OAKka maqola, 30 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar chop etilgan;

xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. PIRLS, TIMSS, PISA tadqiqotlaridan dars davomida foydalanib kelinmoqda.

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida faoliyatining umumiy monitoring quyidagicha:

kafedrada 2025-o'quv yilida 2 ta respublika, 1 ta viloyat va 2 ta tuman seminari o'tkazilgan.

kafedra faoliyatining markaz rasmiy veb-saytida 25 marta, OAV da 2 marta yoritib borilgan;

nashr ishlari jami 49 ta bo'lib, shundan 3 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, 11 ta OAKka maqola, 30 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar chop etilgan;

xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. PISA, STEAM tadqiqotlaridan dars davomida foydalanib kelinmoqda.

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası faoliyatining umumiy monitoring quyidagicha:

kafedrada 2025-o'quv yilida 3 ta seminar, 2 ta ochiq dars, 7 ta TMMD, 6 ta vebinar o'tkazilgan.

1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma, 2 ta OAKka maqola, 3 ta xorijiy jurnalga, 14 ta xalqaro ba respublik ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar chop etilgan;

kafedrada 7 marta ma'naviy tadbir, 4 marta OAVda chiqish, 5 marta tinglovchilar bilan va yotoqxonada tadbirlar tashkil etildi;

har bir modul ishchi o'quv dasturida keltirilgan adabiyotlarning elektron variant va manzili ARM ga joylashtirildi;

kafedra professor-o'qituvchilari kurslarga ishtirok etib sertifikat (9 ta) olishdi.

Pedagogika , psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası faoliyatining umumiy monitoring quyidagicha:

kafedrada 2025-o'quv yilida 1 ta respublika, 1 ta viloyat va 2 ta tuman seminari o'tkazilgan;

kafedra faoliyatining markaz rasmiy veb-saytida 25 marta, OAV da 2 marta yoritib borilgan;

nashr ishlari jami 42 ta bo'lib, 6 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, 19 ta OAKka maqola, 16 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar chop etilgan;

xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan.

Shuningdek, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv dasturidagi mavzular asosida o'quv uslubiy majmualarning tarkibi takomillashtirilib, tayyorlangan taqdimotlarga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilmoqda.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "Sam.vil.PMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovaga:

- ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy nazorat qilish;

- o'quv jarayonini sifatli tashkil etilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimjasiga qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

*2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri*

4/3-son

SamVPMMDa jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi va tarkibini tasdiqlash to'g'risida.

SamVPMMDa yuriskonsulti I.Doniyorovning "SamVPMMDa jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi va tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMMDa yuriskonsulti I.Doniyorov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprel kuni qabul qilingan PQ-474-sonli "Jamoatchilik nazorati" to'g'risidagi Qarori asosida markaz direktorining 2024-yil 26-oktabrdagi 50-sonli buyrug'iga binoan markazda jamoatchilik kengashi tashkil qilindi. Mazkur buyruqqa asosan:

1. Donyorov Ibrohim – yuristkonsult, rais.
2. Qandaxarov Mirjalol – KUQ raisi, a'zo.
3. Abduraxmonov Ja'sur – bo'lim boshlig'i, a'zo.
4. Usmonov Baxodir – dotsent, a'zo.
5. Davronov Pirmazar – professor, a'zo.
6. Haydarov Komil – professor, a'zo.
7. Ashurova Barno – inson resurslarini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi, a'zo.
8. Yakubjanova Muhayyo – xotin qizlar qo'mitasi raisi, a'zo.
9. Fayziyeva Mutabar – bo'lim boshlig'i, a'zo.
10. Rabbanayeva Dildora – katta o'qituvchi, a'zo.
11. Rasulova Maftuna – o'qituvchi, a'zo.
12. Qahorov Sirojiddin – bo'lim boshlig'i, a'zo.

Ishchi guruh vakolatidagi vazifalar:

jamoatchilik kengashi subyektlari tomonidan yuborilgan murojaatlar va takliflarni qonunchilikda belgilangan tartibda va o'z vaqtida ko'rib chiqishi;

murojaatlarga va so'ralayotgan axborotga javoblar taqdim etishi, bundan markaz sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar yohud topshirilishi jamoat tartibiga va fuqarolarning hayotiga tahdid solishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmasligini ta'minlash;

tinglovchilar turar joyida va markaz hududida markaz xodimlari navbatchiliklarini jadval asosida tashkil qilish;

professor-o'qituvchilar va bo'lim xodimlari o'rtasidagi munosabatlar, muomala madaniyati, kasbiy etiket va kiyinish madaniyatiga rioya qilinishi, o'z mansab burchlarini bajargan holda ijro intizomiga amal qilinishini nazorat qilish;

har hafta chorshanba kuni sport tadbirlarini tashkil etish va unda barcha xodimlar to'liq ishtirok etishini ta'minlash;

markaz hududi oshxonalarda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish, shu bilan birga konserva, tamaki, spirtli ichimliklari va tez ayniydigan oziq-ovqat mahsulotlarini sotmaslikni nazorat qilish;

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:
1. SamVPMM yuriskonsulti I.Doniyorovning "SamVPMMda jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi va tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. SamVPMM jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi tasdiqlansin.
3. SamVPMM jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi asosida tarkib tasdiqlansin.
4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

[Handwritten signature]

A. Sobirov

D. Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri

4/4-son

SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida.

SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishning 4-masalasi SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, bu bo'yicha markaz professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

SamVPMM kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayonnomalaridan ko'chirmalar va ma'lumotnomalar taqdim qilingan.

SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlari

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası				
1	G.Fayzullayeva Sh.Aliyev Sh.Mamarasulova	Ta'lim muhitining qulayligi va psixologik xafsizligi	T.: A.Saidov – Kattaqo'g'on davlat pedagogika instituti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), U.Butayeva – Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti. I.: K.Oqilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri v/b, dotsent.	126 bet
2	G.Fayzullayeva U.Shodiyorova M.Badalova	Ta'lim nazariyalari va zamonaviy ta'lim paradigmaları	T.: A.Ibragimov – Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), I.: K.Oqilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri v/b, dotsent.	196 bet
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası				
3	G.Fayzullayeva X.Ravshanova	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	T.: Sh.Fayzullayev – Samarqand davlat pedagogika instituti professori, O'.Achilov – Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi (PhD) I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim	156 bet

			metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	
4	Z.Haqberdiyeva	Kichik tadqiqotchilar o'z olamini qidirishda	T.: N.Narziyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsina, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti p.p.f.d., dotsent. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	86 bet
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası				
5	A.Samyayev	Geografiya darslarida kartografik ma'lumotlar yordamida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish	T.: M.Usmonov – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası mudiri, g.f.d (DSc), professor. I.: D.Saparova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tabiiy fanlar metodisti.	64 bet

SO'ZGA CHIQDI: G.Tagayev – Assalomu alaykum. Hurmatli yig'ilish qatnashchilari! Mualliflar tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar ma'lum bir mavzu doirasida shakllantirilgan. Bu nashr ishlarida ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlar dalillab keltirilgan. Taqrizchilar tomonidan ham ijobiy fikrlarini bildirilgan. Shuning uchun nashrga tavsiya etish maqsadga muvofiq deb bilaman.

Tayyorlangan nashr ishlarining har biri alohida muhokama etilgandan so'ng SamVPMM Kengashi yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin

2. SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "O'quv qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası				
1	G.Fayzullayeva Sh.Aliyev Sh.Mamarasulova	Ta'lim muhitining qulayligi va psixologik xafsizligi	T.: A.Saidov – Kattaqo'g'on davlat pedagogika instituti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), T. U.Butayeva – Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti. I.: K.Oqilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri v/b, dotsent.	126 bet
2	G.Fayzullayeva U.Shodiyorova	Ta'lim nazariyasi va zamonaviy ta'lim paradigmaları	T.: A.Ibragimov – Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor. I.: K.Oqilova – Samarqand	196 bet

			viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri v/b, dotsent.	
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi				
3	G.Fayzullayeva X.Ravshanova	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	T.: Sh.Fayzullayev – Samarqand davlat pedagogika instituti professori; T.: O'.Achilov – Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi (PhD). I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.	156 bet

3. SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi				
4	Z.Haqberdiyeva	Kichik tadqiqotchilar o'z olamini qidirishda	T.: N.Narziyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsina, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.	86 bet
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi				
5.	A.Samyayev	Geografiya darslarida kartografik ma'lumotlar yordamida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish	T.: M.Usmonov – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi mudiri, g.f.d (DSc), professor. I.: D.Saparova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, tabiiy fanlar metodisti.	64 bet

4. SamVPMMning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;

- nashr etilgan metodik ishlarni SamVPMMning ARMga belgilangan (o'quv qo'llanma 5 ta, uslubiy qo'llanma 15 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Nashr etilgan metodik ishlarni SamVPMM saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror ijrosi nazorat akademika faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova zimmasiga yuklatilsin.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

*2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri*

4/5.1-son

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgor ishi muhokamasi to'g'risida.

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgor ishi muhokamasi to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan quyida SamVPMM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Sayipova Dilafruz Raximovna avval ishlagan tashkilot tomonidan berilgan ko'chirma hamda SamVPMMda tashkil etilgan ishchi guruh xulosasi tavsiya etilgan:

Ilova

№	Talabgor F.I.Sh	Darajasi	Belgilangan foiz
1	Sayipova Dilafruz Raximovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	30%

SamVPMM Kengashi raisi A.Sobirov – ushbu masala bo'yicha savollar bo'lsa, marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha ustamalar to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Vazirlar Mahkamasining ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 2019-yil 24-dekabr 1030-sonli qarorining ijrosini amalga oshirish tashkilotlar tomonidan berilgan ko'chirma hamda ishchi guruh tavsiyasi inobatga olinsin.

3. Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Sayipova Dilafro'z Raximovnaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdağı 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaroriga asosan qo'shimcha haq to'lasin.

4. Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Sayipova Dilafro'z Raximovnaga qo'shimcha haq to'lash 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirish inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova va bosh hisobchi B.Norovga topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'majonova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi

A.Sobirov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri

4/5.2-son

SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Hurmatli yig'ilish qatnashchilari bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 5.2-bandida SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish to'g'risida bo'lib, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sayipova Dilafruz Rahimovna dotsentlik ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti v/b ilmiy unvoniga nomzod Sayipova Dilafruz Rahimovna haqida ma'lumot:

Sayipova Dilafruz Rahimovna xalq ta'limi tizimida, xususan, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritib, yaxshi natija va tajribaga ega bo'lgan. Mumtoz adabiyot, adabiyot tarixi sohasidagi izlanishlari natijasida 2024-yilda "Boburnoma"da tarixiy shaxslar tasviri va talqini (ijodkor va hukmdor shaxslar misolida) mavzusidagi 10.00.02 – O'zbek adabiyoti ixtisosligidan falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Sayipova Dilafruz Rahimovna bugungi kunga qadar iqtidorli mutaxassis va malakali pedagog sifatida o'quv qo'llanmalar, monografiya, shuningdek 20 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifidir. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan.

"Thoughts on raising children in "Baburnoma", "Bobur – pok e'tiqod egasi", "Boburnoma"da sarkardalikka xos sifatlar tasvirlari", "Бабур – знаток истории эпохи", "Boburnoma"da saroy atollari tasviri", "Boburnoma" – jahon nasridagi shoh asar" kabi ilmiy maqolalari respublika hamda xalqaro konferensiyalar to'plamlarida, OAK tasarrufidagi hamda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Bulardan tashqari "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" o'quv qo'llanmasi, "Boburnoma"da tarixiy shaxslar tasviri va talqini" monografiyasi muallifidir.

D.Sayipova mehnat faoliyati davomida har doim o'ziga yuklatilgan vazifalar va topshiriqlarni vijdonan bajaradi, har ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Sayipova Dilafruz Rahimovnaning samarali mehnatlari munosib baholangan. Bir necha marta avval faoliyat yuritgan ta'lim muassasalari, SamDUKF rahbariyati tomonidan tashakkurnoma va faxriy yorliqlar bilan rag'batlantirilgan.

2024-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov tomonidan Faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2025-yil 29-avgustdan boshlab Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazida Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM kengashi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. **"Dotsent ilmiy unvoniga v/b sifatida tavsiya etish to'g'risida":**

2.1. Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sayipova Dilafro'z Rahimovna Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablariga muvofiq dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkazilsin.

3. Talabgor bir yil muddatdan keyin tegishli hujjatlarni Oliy attestatsiya komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritilishi lozimligi belgilab qo'yilsin.

4. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish SamVPMM Kengashi kotibi D. zimmasiga Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
26-sentabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 26-sentabr
Samarqand shahri

4/5.3-son

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universitetining Guba filialida rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab berish to'g'risida.

SamVPMM direktori A.Sobirovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universitetining Guba filialida rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab berish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli Qarori, "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida 2025-yil 15-may kuni maktab ta'limida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi asosiy vazifalar to'g'risida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi 262-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida SamVPMM Nizomining 25-bandiga (SamVPMM xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashi) muvofiq Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universitetining Guba filiali bilan kelishuviga ko'ra SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlari: Raximqulova Maxbuba Baxronovna, Bekmirzayev Xasan Safarovich va Saparova Dilshoda Adashevnalarni joriy yilning IV choragida "Inklyuziv ta'lim: pedagogik texnologiyalar va metodik ishlarni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar" dasturi doirasida malaka oshirishi rejalashtirilgan.

Shuni inobatga olgan holda, malaka oshirish bilan bog'liq safar xarajatlari (aviachipta, mehmonxonada turish, kunlik xarajatlar) uchun to'lovlarni SamVPMM Nizomining 25-bandiga (markaz xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi bilan bog'liq xarajatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish) muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlari: M.Raximqulova, H.Bekmirzayev va D.Saparovalarning Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universiteti Guba filialida rejalashtirilgan malaka oshirish bilan bog'liq safar xarajatlari (aviachipta, mehmonxonada turish, kunlik xarajatlar) SamVPMM Nizomining 25-bandiga muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplab berilsin.

2. SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlarining malaka oshirish dasturida ishtiroki hamda yakuniga ko'ra mahorat darslarini tashkil qilish akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovaga yuklatilsin.

3. SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlarining rejalashtirilgan malaka oshirish safar xarajatlarini qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirish bosh hisobchi B.Norov zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Sobirov

D.Yunusova